

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 7



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
7-son
dekabr, 2025

December 2025
Volume 3
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Raqamli iqtisodiyot
2. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
4. Inson kapitali iqtisodiyoti
5. Menejment va marketing
6. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
7. Moliya, kredit va investitsiya
8. Ekonometrika va statistika
9. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar
do'stligi universiteti)*

*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya
Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*

*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti,
Rossiya Federatsiyasi hukumati)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi
Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazarot
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning institutsional asoslari

Abdurazakova Nasiba Sultanovna

Институциональная основа для развития проектного финансирования в коммерческих банках

Абдуразакова Насиба Султановна

Institutional framework for the development of project financing in commercial banks

Abdurazakova Nasiba Sultanovna

Received: December 14, 2025 Revised: December 16, 2025

■ Accepted: December 25, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **Annotatsiya:** Mazkur maqolada tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning institutsional asoslari tadqiq etilgan. Loyiha asosida moliyalashtirish investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda risklarni samarali taqsimlash va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini beruvchi muhim moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida loyihaviy moliyalashtirishning nazariy jihatlarini, tijorat banklarining institutsional roli hamda ushbu sohada mavjud muammolar tahlil qilingan. Maqolada banklarning tashkiliy tuzilmasi, risklarni boshqarish tizimi, normativ-huquqiy muhit va kadrlar salohiyati bilan bog'liq institutsional cheklovlar aniqlangan. Shuningdek, tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari bank tizimining investitsiya faolligini oshirish va loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.
- **Kalit so'zlar:** tijorat banklari, loyihaviy moliyalashtirish, investitsiya loyihalari, institutsional muhit, bank tizimi, risklarni boshqarish
- **Аннотация:** В данной статье исследуются институциональные основы развития проектного финансирования в коммерческих банках. Проектное финансирование является важным финансовым механизмом, позволяющим эффективно распределять риски при финансировании инвестиционных проектов и привлекать долгосрочные финансовые ресурсы. В ходе исследования были проанализированы теоретические аспекты проектного финансирования, институциональная роль коммерческих банков и существующие проблемы в этой области. В статье определены институциональные ограничения, связанные с организационной структурой банков, системой управления рисками, нормативно-правовой средой и кадровыми ресурсами. Также разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование проектного финансирования в коммерческих банках. Результаты исследования имеют практическое значение для повышения инвестиционной активности банковской системы и развития механизмов проектного финансирования.
- **Ключевые слова:** коммерческие банки, проектное финансирование, инвестиционные проекты,

институциональная среда, банковская система, управление рисками.

- **Abstract:** This article studies the institutional foundations of the development of project financing in commercial banks. Project financing is an important financial mechanism that allows for the effective distribution of risks in the financing of investment projects and the attraction of long-term financial resources. In the course of the research, the theoretical aspects of project financing, the institutional role of commercial banks, and the existing problems in this area were analyzed. The article identifies institutional constraints related to the organizational structure of banks, risk management system, regulatory and legal environment, and human resources. Also, scientific and practical proposals and recommendations aimed at improving project financing in commercial banks have been developed. The results of the study are of practical importance in increasing the investment activity of the banking system and developing project financing mechanisms.
- **Keywords:** commercial banks, project financing, investment projects, institutional environment, banking system, risk management

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, investitsiya faolligini oshirish hamda real sektor tarmoqlarini modernizatsiya qilishda tijorat banklarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yirik hajmdagi va uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda an'anaviy kreditlash usullari bilan bir qatorda loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Loyiha asosida moliyalashtirish banklarga investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonida risklarni oqilona taqsimlash, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsiya resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish infratuzilma, energetika, sanoat va transport sohalarida keng qo'llanilib, iqtisodiy o'sishning muhim moliyaviy instrumentlaridan biriga aylangan. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston bank tizimida loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish jarayonida qator institutsional muammolar mavjud. Ushbu muammolar banklarning tashkiliy tuzilmasi, normativ-huquqiy baza, risklarni boshqarish tizimi hamda loyihalarni baholash va monitoring qilish mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni samarali amalga oshirish uchun mustahkam institutsional asoslarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Banklarning ichki siyosati, maxsus loyiha moliyalashtirish bo'linmalarining faoliyati, mutaxassislar malakasi hamda davlat tomonidan yaratilgan huquqiy va institutsional muhit loyihaviy moliyalashtirishning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli mazkur sohada mavjud institutsional cheklovlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishning institutsional asoslarini tadqiq etish hamda bank amaliyotida ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada loyihaviy moliyalashtirishning nazariy jihatlarini, tijorat banklarining institutsional roli hamda amaldagi muammolar tahlil qilinadi.

Loyihaviy moliyalashtirish investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning alohida shakli bo'lib, unda kreditning qaytarilishi va daromadliligi asosan loyiha doirasida shakllanadigan pul oqimlariga bog'liq bo'ladi. Ushbu moliyalashtirish turi an'anaviy bank kreditlashidan farqli ravishda qarz oluvchining umumiy moliyaviy holatiga emas, balki alohida investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligi va barqarorligiga tayanadi. Shu jihatdan loyihaviy moliyalashtirish yirik hajmdagi, uzoq muddatli va yuqori riskli loyihalarni moliyalashtirishda samarali moliyaviy mexanizm hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda loyihaviy moliyalashtirish risklarni loyiha ishtirokchilari o'rtasida taqsimlash imkonini beruvchi moliyaviy model sifatida talqin qilinadi. Mazkur modelda tijorat banklari nafaqat moliyaviy resurslar yetkazib beruvchi subyekt, balki loyiha tashabbuskorlari, investorlar, pudratchilar va davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtiruvchi institut sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu sababli loyihaviy moliyalashtirishning muvaffaqiyati banklarning institutsional imkoniyatlari va tashkiliy salohiyatiga bevosita bog'liqdir.

Loyihaviy moliyalashtirishning institutsional mohiyati, avvalo, bank tizimi doirasida maxsus tashkiliy tuzilmalarning mavjudligi bilan belgilanadi. Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida loyiha moliyalashtirish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'linmalar faoliyat yuritadi. Ushbu bo'linmalar investitsiya loyihalarini baholash, risklarni aniqlash va monitoring qilish, shuningdek, moliyalashtirish shartlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Bunday institutsional

yondashuv loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilish ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, loyihaviy moliyalashtirishning samaradorligi normativ-huquqiy muhit bilan ham chambarchas bog'liq. Kredit shartnomalarini ijro etish mexanizmlarining aniqligi, investorlar va kreditorlarning huquqlarini himoya qilish darajasi hamda davlat tomonidan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash choralari mavjudligi loyihaviy moliyalashtirishning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Institutsional muhit yetarli darajada rivojlanmagan sharoitda banklar loyihaviy moliyalashtirishdan ko'ra an'anaviy kreditlashni afzal ko'rishi kuzatiladi. Xulosa qilib aytganda, loyihaviy moliyalashtirish nafaqat moliyaviy instrument, balki murakkab institutsional tizim bo'lib, uning samarali faoliyati banklarning tashkiliy tuzilmasi, risklarni boshqarish tizimi va huquqiy muhitning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Shu bois tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish uchun institutsional asoslarni mustahkamlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni joriy etish va rivojlantirish jarayonida bir qator institutsional muammolar mavjud bo'lib, ular ushbu moliyalashtirish mexanizmining samaradorligini pasaytiradi. Avvalo, banklarning tashkiliy tuzilmasida loyihaviy moliyalashtirishga ixtisoslashgan alohida bo'linmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi muhim muammo hisoblanadi. Ko'plab tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish umumiy kreditlash bo'limlari doirasida amalga oshiriladi, bu esa loyiha xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkoniyatini cheklaydi [1]. Ikkinchi muhim muammo loyihaviy moliyalashtirish jarayonida risklarni baholash va boshqarish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Loyihaviy moliyalashtirishda kredit risklari bilan bir qatorda texnologik, bozor, huquqiy va operatsion risklar ham muhim ahamiyatga ega. Amaliyotda esa banklar ko'pincha an'anaviy kredit risklarini baholash usullaridan foydalanadi, bu esa loyiha risklarining to'liq hisobga olinmasligiga olib keladi [2].

Shuningdek, normativ-huquqiy bazaning takomillashmaganligi ham loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kredit shartnomalarini ijro etish, garov munosabatlari va investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi banklarning loyihaviy moliyalashtirishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Natijada tijorat banklari kamroq riskli bo'lgan qisqa muddatli kreditlash operatsiyalarini afzal ko'rmoqda [3].

Kadrlar salohiyati bilan bog'liq muammolar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Loyihaviy moliyalashtirish yuqori malakali mutaxassislarni, jumladan, loyiha tahlili, moliyaviy modellashtirish va risklarni boshqarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega kadrlarni talab etadi. Bank amaliyotida

ushbu yo'nalishdagi mutaxassislarning yetishmasligi loyihaviy moliyalashtirish jarayonining sifati va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [4].

Bundan tashqari, tijorat banklari va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining sust rivojlanganligi ham muhim institutsional muammo hisoblanadi. Davlat tomonidan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, kafolatlar va imtiyozlar berish mexanizmlarining yetarli darajada samarali ishlamasligi banklarning loyihaviy moliyalashtirishdagi ishtirokini cheklab qo'yimoqda [5].

Umuman olganda, tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish yo'lida mavjud institutsional muammolarni bartaraf etish bank tizimining investitsiya faolligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarni hal etish uchun banklarning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish hamda normativ-huquqiy bazani mustahkamlash zarur.

Tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni samarali rivojlantirish mavjud institutsional muammolarni tizimli ravishda hal etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur bo'limda bank amaliyotida loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan asosiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, tijorat banklari tarkibida loyihaviy moliyalashtirishga ixtisoslashgan alohida bo'linmalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu bo'linmalar investitsiya loyihalarini kompleks baholash, moliyaviy modellashtirish, risklarni aniqlash va monitoring qilish bilan shug'ullanishi lozim. Maxsus institutsional tuzilmaning mavjudligi loyihaviy moliyalashtirish jarayonining sifati oshirishga xizmat qiladi [6].

Ikkinchidan, banklarda loyihaviy moliyalashtirishga moslashtirilgan risklarni boshqarish tizimini joriy etish zarur. Bunda an'anaviy kredit risklari bilan bir qatorda texnologik, bozor, huquqiy va operatsion risklarni baholash usullaridan foydalanish lozim. Zamonaviy risklarni baholash modellari va ssenariy tahlillarini qo'llash banklarning loyihaviy moliyalashtirishdagi barqarorligini ta'minlaydi [7].

Uchinchidan, loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Kredit shartnomalarini ijro etish mexanizmlarini aniqlashtirish, investorlar va kreditorlarning huquqlarini himoya qilish darajasini oshirish banklarning loyihaviy moliyalashtirishga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu esa investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hajmining oshishiga olib keladi [8].

To'rtinchidan, bank xodimlarining malakasini oshirish va loyihaviy moliyalashtirish bo'yicha maxsus kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Xalqaro tajribani o'rganish, treninglar va malaka oshirish dasturlarini joriy

etish orqali bank mutaxassislarining professional salohiyatini oshirish mumkin [9].

Beshinchidan, tijorat banklari va davlat institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Davlat kafolatlari, soliq imtiyozlari va qo'llab-quvvatlash dasturlarining samarali ishlashi banklarning loyihaviy moliyalashtirishdagi ishtirokini rag'batlantiradi hamda investitsiya muhitini yaxshilaydi [10].

Yuqoridagi taklif va tavsiyalarni amaliyotga joriy etish tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligini oshirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, loyihaviy moliyalashtirish tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirishda muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. Biroq ushbu mexanizmning samarali ishlashi mustahkam institutsional asoslarning mavjudligiga bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalari tijorat banklarida loyihaviy moliyalashtirishni rivojlantirish yo'lida tashkiliy, huquqiy va kadrlar bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Taklif etilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar bank tizimida loyihaviy moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari tijorat banklari amaliyotida, shuningdek, bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Abdurazakova Nasiba Sultanovna Toshkent amaliy fanlar universiteti, katta o'qituvchi / Абдуразакова Насиба Султановна Ташкентский университет, старший преподаватель / Abdurazakova Nasiba Sultanovna, Tashkent University, senior lecturer

► abdurazakova.nasibahon1979@gmail.com

■ 0000-0002-6587-3318

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yescombe E.R. Principles of Project Finance. – London: Academic Press, 2017.
2. Gatti S. Project Finance in Theory and Practice. – New York: Academic Press, 2018.
3. Nevitt P.K., Fabozzi F.J. Project Financing. – London: Euromoney Publications, 2000.
4. Finnerty J.D. Project Financing: Asset-Based Financial Engineering. – Wiley, 2013.
5. World Bank. Project Finance and Public–Private Partnerships. – Washington DC, 2020.
6. Esty B.C. Project finance and investment incentives. – Journal of Financial Economics, 2004.
7. Kleimeier S., Megginson W. Project finance risk management. – Journal of Applied Corporate Finance, 2000.
8. OECD. Infrastructure Financing and Legal Frameworks. – Paris, 2019.
9. Asian Development Bank. Project Finance Capacity Building. – Manila, 2020.
10. IMF. Financial Sector Development and Investment Growth. – Washington DC, 2021.

Xizmat ko'rsatish
va turizm sohasi

Сфера услуг и
туризма

Service and
tourism sector